

## ZAMONAVIY JAMIYATDA OILANING O‘RNI VA AHAMIYATI

*Rahmonova Mahliyo Boymurodovna*

*Xalqaro innovatsion universiteti "Psixologiya va jismoniy madaniyat" kafedrası  
o'qituvchisi*

*Umarova Karina Fazliddinovna*

*Xalqaro innovatsion universiteti psixologiya fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Oila har qanday jamiyatning negizini tashkil etib, uning barqarorligi va taraqqiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Globalizatsiya, migratsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari oilaviy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatayotgan bir paytda, uning jamiyatdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Oila nafaqat farzand tarbiyasida, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda, milliy madaniyat va an’analarni asrab-avaylashda muhim omildir. Zamonaviy sharoitda oilaning mustahkamligi ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy rivojlanish va milliy taraqqiyot uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** oila, zamonaviy jamiyat, globalizatsiya, raqamli transformatsiya, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy qadriyatlar, farzand tarbiyasi, milliy an’analar, mustahkam oila, ijtimoiy taraqqiyot.

Oila deganda ko‘z oldimizda ota – ona farzandlar, bobo-buvilar ya’ni bir xonadonda istiqomat qiluvchi shaxslar keladi. Xalqimizda oilaga muqaddas dargoh, nikoh esa buzulmas Rishta sifatida qaraladi. Oila jamiyatning ustuni deyishadi. Shuning uchun yangi oila barpo bo‘lar ekan, uni ikki yoshga, ya’ni yangi er- xotinlarga tashlab qo‘yilmaydi. Yangi oilaga ota-onalar, qarindoshlar, maxalla, turar joylardagi xotin qizlar qo‘mitalari “Oila” ilmiy amaliy markazi shuningdek mutasaddi markazlar ham e’tibor qaratadi.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda oila masalasiga davlat siyosati darajasida katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Har bir inson baxtli yashashga haqlidir. Oilalarda bir-birini tushunib bir-biriga moslashib yashasa jamiyat mustaxkam va manashu oilada baxt barqaror davom etadi.

Oilani mustaxkamlash nafaqat mamlakat balki dunyo miqyosidagi global masalalardan biri hisoblanadi. Birlashgan millatlar tashkiloti bosh assambleyasi 1993-yil 20- sentyabrda 15-may kunini “Xalqaro oila” kuni sifatida nishonlash

to'g'risida qaror qabul qildi. Mazkur xujjatning qabul qilinishidan ko'zda tutilgan maqsadlardan biri har bir oilalarni ahilligi mustahkamligiga erishishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyun kuni "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-son qaroriga ko'ra, 15 may "Xalqaro oila kuni" sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

Inson hayoti oiladan boshlanadi. Bu yerda u shaxs sifatida shakllanadi. Oila - bu sevgi, mehr-muhabbat hurmat va hamjihatlik manbai asosida yetuk jamiyatni barpo etadi. Oilaning farovonligi mamlakat rivojining o'lchovi sifatida baholanadi.

Oila deb ataluvchi mustahkam qo'rg'onning ustuni ota bo'lsa, unga fayz baraka kirituvchi onadir. Hozirgi kunda mamlakatimizda oilaga e'tibor juda yuqori darajada bo'lib O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qancha moddalari oila xaqidadir.

## **2-modda. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi.**

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti [1998-yilni](#) „Oila yili“deb e'lon qilingan. Bu xam o'z negizida oila muqaddas dargoh ekanligidan dalolat beradi.

Oilaviy munosabatlar tizimining rivojlanishi nikohga kiruvchilar sonining kamayishi va nikoq uchun sherik tanlash tartiblarining qat'iy belgilanishi yo'nalishida ro'y bergan. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng qadimiy shakli bu urug'-qabila bo'lib, u bir ayol urug'idan tarqagan, matriarxat zotidan kelib chiqadigan (uning qizlari, qizlarning farzandlari va ularning avlodlari) barcha odamlarni o'zida birlashtirgan. SHu tariqa urug' – mohiyatan matriarxal oila bo'lib, onaning zotidan tarqalgan barcha avlodni bir-biriga chatishtirib boravergan. Bunday urug' shaklining saqlanib qolgan andozalaridan biri ruslardagi "matreshka" o'yinchog'i bo'lib, u bizga

ona avlodlarining o'zaro bir-birlaridan kelib chiqishini ifodalaydi. Gruppaviy yoki guruhviy oila – bir necha opa-singillarning boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishini taqozo etgan. Bunday ayollar yo o'z qavmidan bo'lgan erkakka yoki tamoman boshqa – begona urug'ning vakili bo'lmish erkakka turmushga chiqishi mumkin bo'lgan. Lekin avlodning kelib chiqishi onalik urug'iga bog'langan, otalikni belgilash holatlari inobatga olinmagan. S. Golodning yozishicha (1998 y.), onadan tarqagan avlodlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ham ko'pgina xalqlarda saqlanib kelgan. Juftlik oila – alohida, bir-biriga unchalik yaqin bo'lmagan yoki mutloq begona ikki kishi o'rtasidagi nikohni nazarda tutgan bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar har doim ham mustahkam bo'lmagan va tomonlarning xohishirodasiga ko'ra u istalgan vaqtda barbod bo'lishi ham mumkin edi. Hozirda mavjud bo'lgan oilalarda shaklan shu model saqlab qolingan. Patriarxal oila – bir erkak kishining bir yoki bir nechta ayol o'rtasidagi T 9 nikohiga asoslangan bo'lib, bunda erkakning huquqlari xotinnikidan ko'proq bo'lgan, nikohning bu shakli ayni xususiy mulkchilik rivojlangan davrlarda keng tarqalgan. Bunday oilada, tabiiy, erkak huquqlari ustivor bo'lib, uning har qanday oila masalalarini yechish va qarorlar qabul qilishdagi mavqei yuqori hisoblangan. SHu sababli avlodlarning kelib chiqishi, urug'ning tarqalishi kabi masalalar erkakning avlodlari shajarasidan boshlangan, mulkka egalik va unga vorislik ham erkaklar tabaqasi orqali yuritilgan. Monogam oila – bir erkak va bir ayol juftligi o'rtasidagi nikoh munosabatlarini nazarda tutadi. Ularning er-xotinlik munosabatlari ham umrbod hisoblangan (qadimgi grek so'zlaridan olingan: “monos” – bir, yagona, tanho; “gamos” – nikoh ma'nosini bildiradi). Oilaning bunday shakli taxminan uch ming yillar avval paydo bo'lgan. O'z mohiyatiga ko'ra bu – patriarxal oilaning bir ko'rinishi hisoblanib, yaqin yillardan buyon oilaning bu shakli ayollar va ayollarning teng huquqliligi, bolalar tarbiyasidagi muayyan erkinlik, ona va bolaning oila hayotidagi nufuzi ortishi shaklida rivojlanib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Inoyatov M. Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat. – T.: SHarq, 2000. – 111 b. 2. Xoliqov D.R. Huquqiy madaniyat – oila mustahkamligi asosi – T.: Fan, 2007
3. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari:
4. Usmonov M., Hamidov X. Donishmandlar oila haqida. – T., 1999.
5. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: “Ma'naviyat”, 1998.